

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi

4-bosqich “A” guruh talabasi Mirzaahmedova Farog’athonning

Manzara janri va unda ranglar perspektivasi

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

Ismonov X.

Andijon 2015.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-12
I-BOB.	Tasviriy san’atda manzara janri va manzarada kompozitsiyaning tutgan o‘rni.	13
I.1	Tasviriy san’atda manzara janri va uning o‘ziga hos tomonlari	13-28
I.2	Manzara kompozitsiyasi.	29-38
II-BOB.	Manzara rangtasviri va unda perspektivaning ahamiyati.	39
II.1.	Rangtasvirda manzaraning ifodalanishi.	39-45
II.2.	Moybo‘yoqda “Perspektiv manzara” kompozitsiyasining bajarilishi.	46-50
III	XULOSA.....	51-54
IV	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	55
V	ILOVALAR.....	56-61

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z milliy tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o'zligini anglashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, «O'zbekiston tarixi»ni haqqoniy yoritishga alohida e'tibor berila boshlandi. Haqqoniy deb aytishimizga sabab «sobiq sho'rolar» davrida bir necha yuz ming yillik tariximiz buyuk ajdodlarimiz hayoti faqat o'sha davr mafkurasi ruhida salbiy jihatdan yoritilib, uning asl mohiyati "soya" ostiga olingan edi.

Birgina jadidlar davriga nazar tashlasak, xalqimiz ma'rifati, madaniyati va ma'naviyati uchun ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz: Avloniy, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi o'nlab ziyolilar o'sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan qoralanib, qatag'on qilindi hamda turli yurtlarga surgunga yuborildi.

Mustaqillik sharofati bilan bunday ajdodlarimiz nomi tom ma'noda qayta tiklandi. Hozirgi kunga kelib, tariximizni haqqoniy yoritishimizga keng imkoniyatlar ochildi. Bu borada yurtboshimizning shaxsan tashabbuslari, fikr va g'oyalari bilan ko'rsatayotgan e'tibori ayniqsa, diqqatga sazovordir. Yurtboshimiz tomonidan 1991 yilni buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan atalishi, 1994 yilning Mirzo Ulug'bek, 1996 yilning Amir Temur yili deb nomlanishi, bu borada olib borilgan ma'naviy va ma'rifiy ishlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

1993 yilda yurtboshimiz I.A.Karimov bir guruh ijtimoiy-gumanitar fan vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda tariximizni, o'zligimizni qayta tiklash borasida o'z ko'rsatmalarini berdi. Yurtboshimiz bu boradagi o'z qarashlari bilan o'rtoqlashdi. 1997 yilda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va 1998 yilda tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda shu sohadagi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berishga, «o'zbek davlatchiligi tarixini» yanada chuqurroq o'rganish borasida bir qator ko'rsatmalarini berdilar.

Yurtboshimizning 1998 yilda chop etilgan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asarida: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» - degan isbot

talab qilmaydigan haqiqatni «davlat siyosati darajasiga ko'tarish zarurligi»ni ta'kidlaydilar.

«Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir». Zero, tarix xalq ma'naviyatining asosidir. Bugungi kunda bizning tariximizdan xabardor bo'lgan halqlar va davlatlar naqadar buyuk tarixga ega ekanligimizga yana bir bor ishonch hosil qilishmoqda.

Prezidentimiz: «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur» - deb ta'kidlaydi. Yurtboshimizning nafaqat tarixiy, balki boshqa ko'plab asarlari jamiyatimizning bir qator sohalari rivojida ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi: Mamlakatimiz siyosatida komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi - deb e'lon qilingan. «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»- deb ta'kidlaydilar. Bir so'z bilan aytganda haqqoniy tarixni yaratish keng jamoatchiligimiz uchun muhim va dolzarb masaladir. Bu borada Prezidentimiz asarlari uslubiy qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'рни beqiyosdir. Xalqimizning ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy sanatning o'рни katta. Xozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari xozirgi kunda umumta'lim maktablari, kasb – xunar kollejlari va oliygoh talabalari pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak rassom yoki tasviriy san'at fani o'qituvchisi tasviriy sang'atning ifoda vositalari haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy

materiallarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo'llarini mukammal egallashi kerak bo'ladi. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilan tasvirni bajarish malakasi bilan birgalikda, shu sohada nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga yetkaza olishi ham zarur. Buning uchun rangtasvir haqidagi nazariy va amaliy, metodik ma'lumotlarni oliygohda bilim olish jarayonida va o'quv amaliyotlarida mukammal egallab olishi kerak bo'ladi.

Oddiy geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortdan boshlab vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat natyurmortlar tuzib, ularni tasvirlash rassomchilik sirlarini o'rgatishda ishonchli va sinalgan yo'ldir.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi: Respublika hukumati tomonidan yaratilgan va butun xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yili "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik ananalar, jamiyatning istiqbolidagi rivojlanishni hisobga olgan holda yurgiziladi" - deyilgan.

Shuning uchun ajdodlarimizning boy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish, ularda ilm-ma'rifatga, madaniy qadriyatlarga va kasb-hunarga qiziqtirish, ustoz-shogird an'analari asosida tarbiyalash o'quvchilarning ahloq odobiga, bilim darajasiga, umuman, ularning ma'naviyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Asrdan -asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ulug' ajdodlarimizning milliy-ma'naviy merosi shaxs kamolotiga juda ahamiyatlidir. Bu maqsadlarni amalga oshirishda ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy hazinalaridan o'rinli foydalanish, ularni yosh avlodga ko'proq tanishtirish, o'rgatish lozim bo'ladi. Ana shu ma'noda san'atning ayniqsa, tasviriyl san'atning o'quvchilarni ma'naviy yuksak, go'zal va nafosatli bo'lib tarbiyalanishlarida ahamiyati beqiyosdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. O'quvchilarni rang tasvir faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda moybo'yoqda ishlashning turli

usullari va qulay tomonlarini manzara kompozitsiyasini bajarish jarayonida ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti: Aytish mumkinki, biz himoya qilayotgan mavzu uchun manzarani tasvirlovchi ishlar hamda turli rangtasvir ustalari va rassomlarning kartinalari ishimiz uchun ob'ekt va predmet bo'la oladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati: Xozirgi kunda umumta'lim maktablarida manzara mavzusini 5-sinf o'quvchilari uchun ham kiritib ketgan. Bizning xozirgi himoyamiz kelgusi pedagogik faoliyatimizda o'quvchilarga natyurmort mavzusini o'rgatishning qulay usullarini anglashimizga va o'rgata olishimizga asos bo'la oladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Mening Bitiruv malakaviy ishim mavzusi "manzara janri va unda ranglar perspektivasi"-deb nomlanadi. Mazkur mavzuni bejiz tanlamadim, albatta. Men tahsil olish davrida ham, o'z pedagogik faoliyatim davrida ham manzara ishlashni eng sevimli mashg'ulotim sifatida sevaman.

Manzara tasviriy san'atning eng qadimiy va mustaqil janri hisoblanib, kishilar qalbida tabiat go'zalliklariga nisbatan chuqur mehr-muhabbat uyg'otuvchi sehrli san'at hisoblanadi. O'quvchilar manzara asarlarini o'rganish va o'zlari mustaqil ravishda manzara ishlashlari jarayonida tabiat go'zalliklari va qadri haqida fikrlashni o'rganadilar. Mening ishlayotgan asarim "Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilar qalbida mustahkamlash yo'lidagi harakatlarim mevasidir. Unda daraxtlar va toshlar tasvirini bajarish orqali o'quvchilarda tasviriy san'atning manzara janriga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, ularni go'zallikka oshno etish g'oyalarini ilgari surganman. Mavzuni muayyan reja asosida yoritib berishga harakat qildim. Rejam kirish, ikki bob va xulosadan iboratdir. Birinchi bob "Tasviriy san'atda manzara janri va manzarada kompozitsiyaning tutgan o'rni."-deb nomlanadi. Birinchi bobni ikki qismga ajratib yoritganman, uning birinchi qismi manzara janri va uning o'ziga xos tomonlari xususidagi fikrlarni o'z ichiga

oladi. Ikkinchi qismda manzara kompozitsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi bob "Manzara rangtasviri va unda perspektivaning ahamiyati.- deb nomlanib, uning birinchi bo'limi "Rangtasvirda manzaraning ifodalanishi." - deb nomlanadi. Uning ikkinchi bo'limi Moybo'yoqda "Perspektiv manzara" kompozitsiyasining bajarilishi. "-deb nomlanib, bu bo'limda o'z ishim uchun amaliy ish sifatida chizilgan manzara kompozitsiyasini bajarilish tartib larini ochib berishga xarakat qildim.Unda daraxtlardagi ranglarning o'zaro munosabatlari.perspektiva natijasida ranglarning ocharib borishi va xavo ta'sirida o'zgarishiga e'tibor berdim. Malumki, Bitiruv malakaviy ishida talabaning olgan nazariy bilimlari, izlanishlari va ijodiy qobiliyati sarhisob qilinadi. Men xam o'z bitiruv malakaviy ishinda o'qish davomida ustozlarimdan olgan biimlarimni namoyon qilishga xarakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: Bitiruv malakaviy ishni bajarishda biz ko'plab manzara tasvirlash usullari, metodikasi, manzara chizish bosqichlari, manzara tasvirlashni o'rgatuvchi adabiyotlar hamda internet ma'lumotlaridan o'rganib, xulosaladik. Ranglarning o'ziga hos xususiyatlari, ularning hosil bo'lishi va amaliy ishda moybo'yoq , akvarel yoki boshqa bo'yoqlardan qanday foydalanish kerakligini kerakli manbalardan ko'rib o'rgandik. Hayotdagi kamchiliklar, ziddiyatlarni bartaraf etishda, zamonaviy sharoitni hisobga olgan holda, O'quvchilarda aniq axloqiy tarbiya kriteriyalarini, ishlab chiqish va ularni jalb etish qoidalarini takomillashtirish kerak.

Estetik va badiiy fanlararo aloqalarning hayotiy murakkabligi hamda hayotiy yashash yo'lini fikrlab ko'ra bila oladigan o'quvchilarni tarbiyalash, amaliy ish jarayonida bilim berishni qayta qurish tubdan ko'rib chiqishni talab etadi.

- Axloqiy madaniyatni yuqori darajada shakllantirish uchun ijodiy tasavvurni takomillashtirish lozim bo'ladi. Ijodiy keng qamrovli tasavvur qila olish qobiliyatiga ega bolalarga tasviriy san'at alifbosiga to'g'ri yo'naltirishni

yo'lga qo'yish kerak.

- Tasviriy san'at inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Insonning his qilish, san'at ob'ektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirishda – san'atning yo'naltiruvchi asosiy kuchini ko'ramiz.

V.A.Suxomlinskiy – bolalar tarbiyasi to'g'risida juda ko'p foydali fikrlar berib ketgan. Bolalarni hissiy tarbiyalash estetik-axloqiy madaniyatli etib tarbiyalash go'zallikni seza olish, qabul qilish bilishni shakllantirish kerak.

Jismoniy va ilohiy g'zallikni his qilish tasavvur qilish haqida ham o'ylab ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qilgan ishidan zavqlanish, san'atni tushunish va his qilish, hamda bolalarni san'at asarlarini sevimli o'rgatish, tabiatni muhofaza qilish tabiatdan zavq olish kabi hislatlarni takomillashtirish lozim.

Har bir odam go'zallikni ko'ra bilish, his qilishi, zavqlana olishi ma'naviy tarbiyaning asosidir.

Insonning intilishi uning dunyoqarashini shakllantiradi.

Ma'naviy tarbiyada tasviriy san'atning tutgan rolini hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Tushunib yetish, his qilish orqali turli xil obrazlarni yaratamizki bu siymolar inson yuragiga diliga yo'l topadi. Aqlini taajjubga soladi.

Badiiy didning o'sishi, ma'naviy qoniqish hosil qilishga, inson dunyoqarashining shakllanishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy ko'tarinkilik, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy bilimini, hayotda tutgan o'rnini belgilab beradi.

San'at asarlarini chuqur tushunish, fikrlash undan qoniqish hosil qilish – insonning fikriy doirasiga didiga bog'liq.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab odam o'zining mustaqil fikrlashi, idrok qilishi, tabiat xodisalaridan o'z manfaati yo'lida foydalana bilishi orqali inson qiyofasini egallaydi.

Hozirgi kunda ham inson dunyoni chuqur bilmay turib tabiatdagi biron

bir voqeani yoki hodisani to'g'ri talqin qila olmasligi bor gap. Demak insonga chuqur dunyoviy bilimlar doimo va har lahza zarurdir.

Ijtimoiy yuksalish uchun odam zotiga hamisha juda katta bilim, kuch-quvvat kerak bo'lsa, go'zallikni tushunish uchun idrokiy tasavvur lozim bo'ladi.

Inson doimo yuqori darajadagi tushuncha va didga ega bo'lmog'i hamda bolani shunday yo'nalishda tarbiyalamog'i shart. Bu esa odamning eng yuqori yutuqlaridan biridir.

Keling, tasviriy san'at fani pedagogikasi masalalariga yaqinroq qaytaylik.

- Tasviriy san'at asari muallifi muhitni, orzu qilgan obrazni yaratish, go'zallikni paydo qilish uchun uni avval tasavvur etmog'i va so'ng tasvirlamog'i lozim. O'z ustida tinimsiz mehnat qilgan musavvirgina o'zi orzu qilgan ko'nikmani shakllantira oladi.

Bola bilish orqali har tomonlama rivojlanadi, olam butunligini tushunib etadi. Go'zallikni sevish, uni his qilish darajasiga erishadi.

- Go'zallik :

Insonning hayotiy turmush tarzida, axloqiy va ijtimoiy hayotida, ma'naviy chehrasining tabiiy shakllanishida aks etadigan holatlar tizimida – ma'naviy tarbiyaning asosiy kategoriyalari sifatida aks etadi. Go'zallikni ko'ra bilish, his qilish, did bilan baho berish - hissiy ko'nikma hosil qilishga olib keladi.

Narsalarning bir-biriga bog'liqligi, ovozlarning tabiat bilan uyg'unlashib ketishi, ranglarni o'zaro uzviy ohangdorligi – go'zallik negizidir. Inson ichki dunyosining mukammalligi didining yuksakligi – shaxsni hissiy go'zallikka intiluvchan etib tarbiyalaydi.

O'zaro muloqatda ham odamlarning ma'naviy etukligi, faolligi tufayli – inson ijtimoiy hayotning yaratuvchisi deyishimizga asos bo'ladi.

San'atda – go'zallikning ro'yi-rost barq urishi uning aks etishi insonning yaratuvchanligiga bog'liq.

Go'zallik o'quvchilar shaxsining – shakllanishida ham muhim rol

o‘ynaydi.

Badiiy ko‘nikma bilish bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Badiiy boylikni tushunish turli tasodiflar tufayli turli yo‘sinda o‘sadi.

Bir-biriga bog‘liq holda rivojlanadi.

- Hayot esa bir-biriga ta’sir etuvchi kuchlar orqali davom etadi va yuksaladi.

Go‘zallik – insonni hissiy junbushga keltirsa atrof muhitga bo‘lgan ishtiyoqini oshirsa tabiiy voqealarni tahlil qilishga undasa demak go‘zallikni o‘zining sirli kuchi bilan inson ruhiga ta’sir ko‘rsatmoqda deb tushunish kerak.

Shu kuch go‘zallikni his etib-yanada go‘zalroq san’at asarini yaratishga ilxomlantiradi.

- Bola ko‘rganini qiladi degan xalqimizda maqol bor – demak bola oilada maktabda ma’naviy tarbiyaning asosini oladikim – bu ta’lim umrining oxiriga qadar ta’sir etish mumkin. Ma’naviy tarbiya asosi esa go‘zallikni, atrof-muhitni sevrishga o‘rgatadi. Yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

Badiiy asarlarni sevrish, tushunish, avaylab – asrash ijodiyotga intilish kabi hislatlarning debochasiga asos solinadi.

Ma’naviy tarbiya – bu hissiy did va aqliy ko‘nikma hosilidir.

Estetika – go‘zallik manbaidir, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri xursand bo‘lish, san’atning hayotdagi o‘rnini ko‘ra bilishdir – degan Aristotel. Ma’naviy did - insonda go‘zallikni his qilish, sezish qobiliyatining negizidir.

SHaxsning axloqiy tarbiyasi – ma’naviy tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. Insonda mudrab yotgan hissiyotni uyg‘otish – ma’naviyatning asosidir. Butun ish faoliyati davrida to‘g‘ri mo‘ljalda ish olib borish – go‘zallikni his qilish manbai hisoblanadi.

Tashabbuskorlik hayotda o‘ziga ishonch, hayotga bo‘lgan muhabbat, olam go‘zalligini his qilish, haqiqatni yolg‘ondan farq qila olish, go‘zallikni xunuklikdan farqlay olishlik kabi hislatlarning takomillashuvida san’at asarlarini

o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson bitta non, suv bilan tirik emas balki uning hayotda barkamol yashashi uchun ma'naviy boyligi, dunyoqarashi, didi ham zarurdir.

Inson hayotda baxtli yashash uchun mayda-chuyda narsalarning bo'lishi yetarli emas. Hayotda har bir narsani o'z o'rni bor.

Ijtimoiy hayotdagi saboqlar shu narsani ko'rsatadiki ma'naviy tarbiyadagi ehtiyotsizlik maktab partalaridan hissiy bo'sh, ma'naviy noyetuk, go'zallikni ko'ra olmaydigan, hissiyotsiz, didsiz shaxslarni shakllanib qolishiga sabab bo'ladi. Aqlan - zaif, qahri - qattiq, atrof- muhitga beparvo, ota-onasiga bemehr, qallob, shafqatsiz, o'z shaxsidan boshqa shaxslarni past ko'radigan, turli oqim va aqidalarga ishonuvchan, dinga ko'r-ko'rona ishonuvchan –manqurtlar etishib chiqishiga yordam beradi.

Ular shiddatli hayot oqimiga tayyor emas, o'z manfaatini ko'zlovchilar bo'lib qoladilar. Ularni san'atga, go'zallikka yo'naltirish bu jamiyatimizning kelajagi ishonchli qo'llarga o'tishi uchun asosiy ko'prik vazifasini o'taydi. Bu o'rinda tasviriy san'at o'qituvchisining hissasi beqiyosdir.

Go'zallik bu – takrori yo'q gavhardir.

Uni ko'ra bilishning ilk g'unchasi –san'atdir.

- tabiat go'zallikni yaratuvchi bog'bon.
- umumbashariyat go'zallik ila tirik va to'la-to'kis hamohang yashaydi
- Go'zallik doimo ko'z oldimizda, uni biz har lahzada ko'rishimiz his qilishimiz mumkin lekin bu holatni his qilib sezish hammaga ham nasib etavermaydi. Olamda xunuk narsaning o'zi yo'q, hamma narsa chiroylidir. Uni qanday qilib ko'ra olishga bog'liqdir.

- Chiroyni, go'zallikni ko'ra bilishlik, qalbdan sezish, zavqlanish, lazzatlanish – bu ma'naviy didimizga, axloqiy dunyoqarashimizga bog'lik.

Rassom odamni, hayvonat olamini tasvirlar ekan uning tuzilishini hamda tasvirlash metodikasini mukammal bilmog'i lozim.

Metodika soʻzi grekcha soʻz boʻlib, "tadqiqot" yoʻli bilish, usul maʼnolarini beradi. Pedagogikada oʻqitish metodlari deganda, talabalarni bilim, mahorat va malakalarini oshirishda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoviy bilimlarni chuqur egallashida oʻqituvchilarning qoʻllagan ish metodlari - usullari tushuniladi.

Oliy taʼlim muassasalarida taʼlimning turli usullari qoʻllaniladi. Masalan: oʻquv, oʻquv turi, rejasini dasturi va taʼlim prinsiplari, oʻquv tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir.

I-BOB

TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA JANRI VA MANZARADA KOMPOZITSIYANING TUTGAN O'RNI.

I.1. Tasviriy san'atda manzara janri va uning o'ziga hos tomonlari

Manzaraning rangtasviri — rangtasvir dasturining kerakli bo'limi bo'lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir. Tabiat benihoya jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviriy san'atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go'zal manzara asarlar o'zining nafosatli ta'siri bilan insonni ma'naviy boyitishga erishadi.

Ona tabiat qo'ynida bo'lish ijodiy fikrlar tug'ilishi va ruhlanishni o'zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o'sha muhitni chuqur o'rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma'lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli yetkazishga o'rgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisidagi ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yorug'likni hosil qiluvchi yorugiikning ko'pligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara obyektlarini kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan almashuvi, yil fasli va ob-havoning turli holati buning hammasi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi — tabiatning ma'lum holatini, yoritilganligini, havoiiy muhit ta'sirini ma'noli makonni yetkazishdir. Manzara tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash usuli, umumiy tus va rang holatini to'g'ri topish yordamida erishadi. Manzara obyektlari va narsalarni rang, och-to'qligi ,va to'yinganligi bo'yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini

belgilash bular etyudning rangli munosabatlarini to'g'ri ifodalashda asos qilib olinadi.

Manzara etyudini mahoratli tasvirlash — demak uning rang munosabatlarini naturada ko'rinayotganday o'xshatib bajarishdir. Bunday talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos bo'lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani xaqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to'qligi va to'yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo'yoqlar doirasiga o'tkazadi, so'ngra tomoshabin etyuddagi ko'rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o'rnatilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o'zgaruvchandir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug'lik nurlarini tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) qarab o'zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilishni ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari ma'lum tusli va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitraning och va yorqin bo'yoqlari (quyoshli kun)boshqasida esa kam to'yingan quyuq, qoramtir bo'yoqlar qo'llaniladi (bulutli kun). Shunday qilib etyud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiy tusni hisobga olish kerak. Bunga, avvalambor barcha narsalarni yorqinligi, ranglarni to'yinganligi bo'ysunishi zarur. Shuning uchun etyudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani yechish zarur: naturaning etyudida ko'proq yorqin, to'q va to'yingan dog'lar rang va yorug'lik kuchi jixatdan qanday bo'ladi. Shular atrofida etyudning barcha narsalari va obyektlari rang munosabatlarida qurilgan bo'lishi kerak.

Ko'zning moslashuvi, deb ataluvchi (yorug'likka ko'zning sezuvchanligining ko'tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan

tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib to'qroq bo'lib ko'rinadi.

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara obyektlari va narsalarni yaxlit ko'rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko'rinishni yorqin ranglarda, keyingi ko'rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko'rish orqali manzaraning perspektiv o'lchamlarini, ularning turli ko'rinishdagi rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo'yoqlar, kechqurun esa sariq zarg'aldoq, bulutli kunda esa neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O'rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-xavorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturada ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarini mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak.

Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta'sir kuchi shunda namoyon bo'ladiki, kartinadagi narsalar, obyekt yoki voqea ma'lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa."Kim men uchun haqiqiy kolorit hisoblanadi?"— deb D. Didro o'zi javob beradi: "Tabiat ranglarini to'g'ri yoritilganligini tasvirlay olib kartinada uyg'unlikka erisha olgan rassomgina".

Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko'pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki e'tiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko'pincha umuman noto'g'ri "munosabatlar" tushunchasi deyilganda rang turlarini mutanosibsizligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarini farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko'p asrlar oldin narsalarning ranglari muhit bilan, yoritilish sharoitlari bilan o'zgarishlarini bilishgan. Uyg'onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va havoiiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko'rinishida muxitni o'rni (Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, D. Kons- tebl, D. Reynolds) to'laqonli bayon etilgan. Shunday bo'lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Ma'lum bo'lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko'lamini saqlagan holda munosabatlar usuli bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo bo'lgan (V.D. Polenov, I.I. Levitan, K.A. Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashg'ulotlar manzaraning asosiy obyektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dog'i, yer yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog'i va hokazolar).

"Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak", — deb yozgan K.A. Korovin.

Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: "Biz hali manzaradagi yer, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bog'lash ko'nikmalarini to'laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bo'lib jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkabligi — manzarada suv, yer va osmonning to'g'ri rangli munosabatlariga erishishdir".

Misol tariqasida N.N. Ge "Bulutlar", "Dengizda qu- yosh botishi" va A.E. Arxipovning "Shimoliy manzara" asarlarini ko'rishimiz mumkin. Rassom N.N. Ge osmon, suv va yer munosabatlarini, old ko'rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o'zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E. Arxipovning etyudi esa betartib to'q rang surtmalari bilan osmon, yerning asosiy munosabatlari ko'l bo'yidagi katta bo'lmagan omborxona tasvirlangan. Bunday dastlabki bir seansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani

manzara etyudidagi rang tuzilishi, uning materiallik va fazoviy sifatlarini hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib, umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarida (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda-bo'laklarni bajarishga o'tiladi va hokazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100—300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaho- lanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chalg'ib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masa- lan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvirbo'yicha vazifa va mashqlar huddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yahshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak:

- 1) plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli;
- 2) asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash;

- 3) umumiy tus va rangdorlik holati;
- 4) manzara obyektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi;
- 5) manzaraning mayda bo'laklarini tasviri;
- 6) manzarada kenglik.

Plenerda naturani yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usuli

Xaqqoniy tasvirlash etyudning rangdorlik qatorining qurilishiga, naturaning rang munosabatlari mutanosibligiga asoslanadi. Rang munosabatlarini aniqlanishi bir vaqtning o'zida manzara obyektlarini yaxlit taqqoslashda amalga oshiriladi. Shuning uchun plenerda ishlashdan oldin e'tiborni mavjud ko'rinishning hammasini yaxlit idrok etishga yo'naltirish muhim. Faqat shunday yaxlit ko'rish manzaraning asosiy obyektlari (osmon, yer, suv, old va uzoqdagi ko'rinishlari) orasidagi ranglar farqini aniqlashga imkoniyat tug'diradi. Manzaraning (osmon, yer, daryo va h.k) barcha obyektlarini ishlash vaqtida birdaniga yaxlit ko'rish qiyin. Manzaraning barcha obyektlarini yaxlit idrok qilish uchun ancha kengroq ko'rish maydonini talab qiladi. Naturani yaxlit qabul qilishda yordam beradigan mashqlarga intererdagi natyurmortni bajarish, keyin esa, ayvonda yoki ochiq deraza tokchasida turgan gullar dastasini tasvirlashni maslahat beramiz. Mashqlar-ni bajarishda natyurmort, interer, gullar dastasi, deraza pardasi, deraza orqasidagi shahar ko'rinishlarini ham birdaniga idrok qilib ko'rish juda muhim.

Asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan mayda bo'laklarga va yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yaxlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzara- ning asosiy obyektlari (osmon, yer, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning obyektlaridagi asosiy munosabatlarning to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang

munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlang'ich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10sm) bajarish zarur. Qo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan "ko'chirmasdan", balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q rang dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larini kuchi jihatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorug' va rang bo'yicha yorqin bo'lishi, to'q tusda esa old ko'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani yetarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlili uyni va h.k.), obyektlar bo'lib hizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoyi perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha obyektlarini nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzarani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi. Etyudning rangdor munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Har bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

Yoritilishning umumiy va rangli holati

Manzara etyudida yechiladigan muhim vazifa turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda buni umumiy tus va rang .holatini ko'rsatishga aytiladi. Xoxlagan etyudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari, albatta, naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi zarur.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuk (qoramtir) va kam to'yingan bo'ladi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zarg'aldoq va sariq ranglar to'yingan- ligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

"Manzarada — deydi R. Falk, asosiysi havoyi muhitning rangli holatidir".

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'fiq diapazonli och- to'q, yorqin va qoramtir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etyudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yorug' va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi. Quyoshli kunda etyud bajarishda palitradagi yorqin va jozibali diapazonini to'liq ishlatadi. Kechqurun yoki bulutli kunda etyuddagi.rang munosabatlari to'qroq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'lamini saqlab qoladi. Masalan, I. Repinning "Rursk guberniyasida cherkov namoyishi" kartinasida ranglar nihoyatda jozibali.U asarda quyosh nurini sezdira olgan. Uning "Targ'ibotchining hibsga olinishi" kartinasi qoramtir va quyuk bo'yoqlar bilan tasvirlangan.

Manzara etyudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini

sezish mumkin: barcha etyudlarda eng yorqin va ravshan dog'lar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

Manzara obyektlarida kolorit birligi va yoritilish rangi

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning haqiqiy bo'yoqlarini tushunishga, ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini ko'rishga birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo'yoqlarni noto'g'ri tahlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom yoritilishning umumiy rangi ta'sirida tabiatdagi o'zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki quyosh barcha narsalarga va manzara obyektlariga pushti, sariq nozik rangni, kunduzgi quyosh esa oltinsimon, kechqurungisi to'q sariq yoki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorug'ligi narsalar rangini ko'kimtir yashil tomonga o'zgartiradi. Elektr chirog'ida narsalar och- to'q sariqni, sham esa — to'q sariq bo'yoqni xadya etadi. Demak, yoritilishning o'zgaruvchan sharoitida narsalar rangi yoritilish manbai ta'sirida bo'ladi.

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib yorug'ligi tarqatilgan osmonda narsaning shaxsiy rangi ko'proq namoyon bo'ladi. Bulutli kunning yengil tekis yorug'ligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tug'diradi.

Manzaraning turli yoritilgan holatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz quyoshli kun, bulutli osmondagi quyosh yorug'ligi, kunbotar vaqt, bulutli kun, qosh- qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Bunday yoritilgan sharoitlarda mashqlarni bajara turib barcha e'tiborni tabiatdagi umumiy tus va rang holatining o'zgarishlariga qaratish lozim. Manzara etyudlarida tus va rang yaxlitligi va birligini yo'qligi ranglarning maydalanishiga va pala-partishlikka yo'l qo'yilishi ishning sifatini buzadi. Bunday etyud ifodali bo'la olmaydi va tomosha- binga nozik ta'sir etmaydi. M.A. Vrubelning "Nastarin" va I.N. Kramskoyning "Oydin kecha" mavzuidagi asarlari rang jozibasi hamda asarning yaxlit topilishi bilan tomoshabinni o'ziga maftun eta oladi.

Manzarada mayda bo'laklarni tasvirlash

Mazmun jihatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga qisqa vaqtli etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo'lagi yoki bir necha toshlar, osmondagi bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dog'i o'z-o'zidan narsa yoki obyektning aniq shakllarisiz bezakli tasvirdan boshqa hech narsani ifodalamaydi.

"Tabiatni to'laqonli tasvirlash va uning go'zalligini ko'rsatish uchun deydi T. Russo — daraxtlar yerda mustahkam turishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi, qolgan qismi polotno ichiga kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o'ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Har bir bo'yoq surtmasi shunchaki yuzaki qo'yilmasdan, xar bir surtma yaxlit bo'lishi va biron-bir narsani aniq ifodalashi kerak".

Etyudda aniq obyektlarni tasvirlash ishi naturadagi manzara va muhit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa obyekt shakli, uning hajmi va h.k. astoydil ishlab chiqiladi. Bularning hammasi yoritilishning umumiy kolorit holatini to'g'ri hisobga olib rang bilan hal qilinadi.

Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Har bir daraxt alohida o'zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli holatlarda, ko'katlar bilan butalar, har xil daraxt turlarining xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o'rganish uchun naturadan juda ko'p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning obyektlarini bo'yoqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish ham zarur.

Manzaraning alohida obyektlarini va mayda bo'lak ishlanmalariga qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq havoda qator natyurmortlar bajarilsa yaxshi bo'ladi. Plenerda (quyoshda, soyada va h.k.) yoritilish sharoitiga qarab natyurmortni joylashtirib, qator mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

Daraxt soyasiga qo'yilgan natyurmort osmon va daraxt yaproqlari reflekslari ta'sirida o'zgacha ko'rinadi.

Yashil yaproqlar va ko'k osmon bu ikki rang natyurmortning barcha ranglar qatorini belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A. Plastovning "Yoz" kartinasini ko'rish mumkin. Daraxt soyasida qiz bilan ayol tasvirlangan. Osmondan kumushsimon sovuq rang, soylari esa yashilroq ranglarga ega.

Ko'pgina aks va shu'lalar mavjudligi tufayli bulutli ob-havoda yorug'-soylar o'z kontrastligini yo'qotadi va yengil tashqi ko'rinishlari va yumshoq soylari bilan fazoviy muhitni yaratadi.

Shakllarni modellash shunday amalga oshiriladiki, har bir narsa hajmini va materialligini umumiy yoritilish va muhit ta'siri natijasida paydo bo'lgan nozik ranglar bilan ko'rsatiladi.

Bulutli ob-havoda koloritni xarakterli holatini A.A. Plastovning "O'rim" kartinasining natyurmort qismida ko'rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Natyurmortdagi narsalarning yorug'-soyasi bir-biridan kam farqlanadi. Kechki yoritilish holatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa "Traktorchilarning kechki ovqati" asarida ko'rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qismi qizil, to'q sariq ranglar bilan, soylari esa quyuk to'q ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini tasvirlangan bo'lib, asar nihoyatda jozibali yaratilgan.

Manzarada kenglik

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida ko'p seansli davomli etyud mashqlari bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy ko'nikmalarni qo'llash hamda yangilarini o'zlashtirish kerak.

Uzoq vaqtli etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak. Ularni bajarish vaqti 2-4 soatdan (bir seansli) bir necha o'n soatgacha (ko'p seansli), davom etishi mumkin. Ko'p seansli etyud quyoshda ham, bulutli ob-havoda ham belgilangan bir vaqtda bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning hayotiy mavzusi naturaning yaxlit ko'rinishi plastik-kompozitsiya munosabatlarida ham, koloritda ham asosiy aniqlash

kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jarayonida kompozitsiya syujetini puxta o'ylash, tahlil etish va uni tasvirlash muhimdir. Tasvirlash tekisligida obyektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Manzara obyektiga yaqinlashib yoki uzoqlashib joy xususiyatlarini o'rganish, ko'rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan yer va boshqa obyektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda ham muhimdir.

Naturadan manzara kompozitsiyasini yaratish, natyurmort qo'yilmalari uchun narsalar tanlash bilan ayrim o'xshashlikka egadir. Etyud kompozitsiyasini yaratishda rassom chuqur fikrlashi, joyni tanlay bilishi, perspektiva qoidalariga amal qilishi va eng muhimi fazoviy kenglikni mohirona tasvirlay olishi zarur. Manzara mavzusini tanlashda did, badiiylilik va kompozitsiyani asarda maromiga yetkazib tasvirlash, rang va tus munosabatlarida ishni yaxlit yakunlay olish rassomning professional mahoratiga bog'liq.

Ma'lumki, narsalar katta masofada hajmliligini, relefligini yo'qotib siluetli tekislik xarakteriga ega bo'ladi. Old ko'rinishdagi narsalar ancha hajmli, soya-yorug'i kontrast bo'lib ko'rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo'yog'i asta-sekin moviyga o'tadi. Olisdagi to'q narsalar ochroq va ko'kimtir bo'lib ko'rinadi. Quyosh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog' cho'qqilari ham qizil to'qsariq ranglarga kiradi.

Manzara janrida kompozitsiyaning yaratilishi.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa manzaralarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozitsiyalarning eskizlarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozitsiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozitsiyaning son bog'liqligi munosabatlarini b

irma-bir keltirib o'taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o'lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug'lik manbaining holati, soya-yorug'ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog'lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob'yektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug', o'lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o'lchash va sanab ko'rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmuni kompozitsiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylik

dir. Bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlama yutuqqa erishadi, Kompozitsiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozitsiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozitsiyaning ikkita koordinata orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinata chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozitsiya amaliy – bezak kompozitsiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozitsiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozitsiya predmetlarni kartina tekisligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.Ye. Repin, Ya. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bimalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozitsiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini

to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozitsiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozitsiyaning barcha qonun-qoidolari va amallariga rioya qilinishi taqozo etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozitsiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozitsiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali kompozitsiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozitsiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozitsiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlaridan, kompozitsiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozitsiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oya tasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarli chiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozitsiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozitsiyaning fazoviy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozitsiyaning umumiy g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozitsiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lavha suratlar ishlanishi kerak.

I.2 Manzara kompazitsiyasi

Manzara - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita- fon sifatida muhim ro'l o'ynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara janri tarixi XVI - XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E. Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. SHuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitaning «Oltin kuz», «Abadiy sokinlik uzra», I. Shishkining, «O'rmon yiroqligi», V. Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

V. Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K. YUon, YU. Pimeyev, G. Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoyish etdilar.

Urushdan keyingi yillarda muntazam tashkil etilgan Respublika, sobiq ittifoq badiiy ko'rgazmalar, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Tabiatni yangicha his etish, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi. Rassom sanoat, shahar, lirik manzaralarni aks ettirmasini tabiatga ishtiyoqi ortib bordi.

XX asrni 50 nchi yillari o'zbek manzara janrida Urol Tansiqboev karvonboshi bo'lib qoldi. Qishloq xo'jalik tematikasiga oid asarlar yarata boshladi.

1950 yili «O'zbekistonda bahor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Erta bilan esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatni uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Hayotni ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishini epik holatda yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida (1951 y) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida yechish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxna-Tashu» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.

«Qayraqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U. Tansiqboev Moskva Izd. Iskustva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi SHarq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Oldimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilishi panoramasi, orqasida biryuza rangli qayroqum dengizi yoyilgan kompozitsiya markazi ham gidrostansiya qurilishi. Qurilishi hali nihoyasiga yetmagan. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi qayroqumda haqiqatni poetik talqin etilishi bilan manzara asarida mahoratini ko'rsata bilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tushlardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatni bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh

nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.

U.Tansiqboev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Almaliqda» 1958 y., «Sement zavodi» 1960 y., «Charvak GES qurilishida» 1969-1970 y. asarlari shular jumlasidandir.

Ural Tansiqboev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlar tasvirlanadi. Sobiq SSSR badiiy akademiyasining muxbir a'zosi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi Ural Tansiqboevni ko'p asarlari Moskvadagi Tretyakov gallereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili bu Nikolay Qoraxondir.

Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik tabiatga chiroy ochayotgan yirik inshootlar, industriya manzaralaridan tashkil topdi. Uni xalqni farovon hayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqtiradi «Zavod trubalari» 1929 y, «Ishga ketyaptilar» (1934 y.) shular jumlasidandir.

50 yillarga kelib rassom ijodida Tog' mavzusi asosiy o'rin egalladi. Ko'proq bahor, kuz, tabiatni erta-kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog'ning jo'shqin ohanglarini «Nanayga yo'l» 1954 y. «Amu Daryada» 1957 y, «Elektrostansiya» 1957 y. asarlarida ko'rishimiz mumkin.

1958 yillarga kelib rassomning yangi ijodiy qirralari ochila boshladi. Buni «Gullayotgan Vodiy» asari misolida ko'rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog' fanida gullab turgan oq pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepoyon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti yechimi asosiy rol o'ynaydi. Esayotgan mayin shabbada, tizma tog'lar,

sariq, tilla rangdagi bug‘doyzorlar bunga misol bo‘laoladi. Sariq mayin tilla kaloritda yozilgan «Oltin kuz» (1962 y), «Tog‘da kuz» (1959 y), «Oltin simfoniya» (1962 y), «Toshkentda kuz» (1967y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli yetuk manzarachi rassom sifatida namoyon bo‘ladi.

Rangli beqasamga o‘ralgan tabiat qo‘yniga berkilgan tog‘ yonbag‘ridagi qishloq, quyosh nurida jilvalanayotgan daraxtlar orasidagi burma yo‘llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O‘sha davrdagi keksa rassomlar O. Tatevosyan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O‘zbekiston tabiati va hayotdagi sodir bo‘layotgan yangiliklarni aks etdirdilar. Z. Kovalevskaya, Z. Inog‘amov, N. Qo‘ziboev, K. Bogaduxov, G. Ulko, M. Esin, N. Shurgin kabi rassomlar O‘zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.

P. Benkov metodikasini yaxshi egallagan shogirdi A. Roziqovni «O‘zbek hovlisi» (1947 y), «Sherdor hovlisida» (1950 y), «Samarqandda bahor» (1958 y) kabi asarlari Benkovni eslatadi.

Rashid Timurov go‘zal Samarqandni kuylagan yetakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaharda yashab, ko‘p asrli qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog‘larni, hayotni sevib tabiat go‘zalligidan ilhomlanib ijod qildi. «Samarqand bog‘lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, bahor» asarlarida sokinlik, xalqni bayram tarannumi ifoda etilgan.

Samarqanddagi «Shohi-Zinda», «Xazrat Xizar», «Ulug‘bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini sevib tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U «Samarqand» (1958 y GMI) asarida ko‘rish nuqtasini juda to‘g‘ri topgan, panorama ko‘rinishida tasvirlangan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Har bir rassom, har bir avlod o‘z davrida manzara janrida ham o‘zini sinab ko‘radi, lekin hammalari ham manzarani yaxshi his eta olmaydi. Manzarachi rassom bo‘la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o‘z his-tuyg‘ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko‘plab keksa avlod rassomlari bizlarga go‘zal manzara asarlarni yaratib meros

qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asar mazmunini kompozitsiya tuzilishini, ularni ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir.

70-80yillarda G'.Abdurahmonov, F.Toxirov, R.Choriev, K.Bogoduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A. Nuritdinov, O.Qozoqov, 3. Islomshikov, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: SHahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh boglar hamda er osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog` manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvador suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'priklar, metro qo'rilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligani, uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam - olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizigi, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, kolorit, yorug', refleksi, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda

quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli xususiyatlarni sinchiklab kuzatish lozim.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingiorqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritni aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyani yakuniy nushasini amalda bajarish kerak. Uni qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa manzaralarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozisiyalarning eskizlarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozisiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozisiyaning son bog'liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o'taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o'lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug'lik manbaining holati, soya-yorug'ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog'lari muvozanati, tasvirlanayotgan

ob'yektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug', o'lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o'lchash va sanab ko'rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylikdir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlamayutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemaolol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozisiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozisiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozisiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozisiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqozo etiladi. Bunda uning

chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozisiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozisiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali kompozisiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozisiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozisiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlaridan, kompozisiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozisiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oyatasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarlichiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozisiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozisiyaning fazo viy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozisiyaning umumiy g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhimrol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozitsiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lafha suratlar ishlanishi kerak.

II – BOB

MANZARA RANGTASVIRI VA UNDA PERSPEKTIVANING AHAMIYATI.

II.1 Rangtasvirda manzaraning ifodalanishi

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yialamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o'xshash. Chuki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ishlanishi mumkinligidandir. Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun ungaoq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo'shilgach bo'yoqning erkinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato,

moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yialamlarning turlicha kattalikdagi xillari, mastixin va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo'lmaydi. Uning qoplamasi (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir. 5 foizli elim (jelatin, baliq yoki duradgorlik elimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo'rgaqo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'ni - maxsus oqartirilgan rangtasvir yog'i quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi. Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor idishga solib chiiariladigan moybo'yoqdan suyuq bo'lmasin. Shunda uni bemalol mato sathiga mastixin bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 xafta quritilgach G'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam (fleyts) bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulda tayyorlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r vaoq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo'lib qolgudek bo'lsa, o'shaelim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida ko'rishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiatda asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki ular boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida xosil bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan qolgan juda ko'p ranglarni chiqarish, xosil qilish mumkin. Ulardan xatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va o'quv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu

bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati qulay bo'ladi. Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutoala qilish ham zo'r vositadir.

Moybo'yoqlar uchun moylar va suyultirgichlar

Moybuyoqlarning asosiy plenka hosil qiluvchi komponenti ba'zi bir o'simliklarning urug'laridan olinuvchi o'simlik moylari hisoblanadi.

Moylar quriganda qanday plenka hosil qilishiga qarab to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhni zig'ir turidagi moylar tashkil etadi. Ular juda tez qurib, mustahkam bo'ladi, organik eritgichlarda erimaydi. Bu guruhga: zig'ir, kendir moyi va boshqa moylar kiradi.

Ikkinchi guruhni ko'knori turidagi moylar tashkil etadi. Plenka hosil qilish qobiliyati birinchi guruhga nisbatan pastroq, o'zoq vaqtda quriydi. Olingan plenka organik suyultirgichlarda qisman eriydi, qizdirilsa yumshab, erib ketadi. Bu guruhga kungaboqar, ko'knori, soya va boshqa moylar kiradi.

Uchinchi guruhni zaytun turidagi moylar tashkil etadi. Bu moylar to'liq qurimaydi.

O'simlik moylari yog' kislotalari (94-98 %) ning glitseridlaridan, ozroq miqdordagi to'yingan va tuyinmagan yog' kislotalari (1-2 %), yuvilib ketmaydigan vositalardan (0,5-1 %) va oqsil modda (0,5 %)lardan tashkil topgan.

O'simlik moylarining plenka hosil qilishning asosiy sababi bu ularning tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarining mavjudligidir.

Moylarning yog` kislotalari bilan to`yinganlik darajasi, plenka hosil qilish qobiliyatini xarakterlash uning tarkibidagi yod birligi bilan ko`rsatiladi. Moyning yod birligi qancha ko`p bo`lsa, u shuncha tez quriydi.

O`simlik moylarining muhim xususiyatlaridan biri bu uning polimerlash kobiliyatidir.

Polimerlangan moy tez qurish xususiyatiga ega bo`ladi va yaxshi fizik-ximik xususiyatiga ega bo`lgan plenka hosil qiladi.

"Alla prima" rangtasviri

"Alla prima" tushunchasi lotin tilidagi "alla prima vizta" so`zidan olingan bo`lib, "bir qarashda" ma'nosini beradi va pastasimon bo`yoq bilan qisqa vaqtda ishlashni bildiradi. Bunda kartina bir seansdayoq tayyor bo`ladi. Buning uchun rassomning o`ziga ishonchi kuchli va bo`yoqlar bilan ishlashda tajriba bo`lishi kerak. Bo`yoqlar asosan palitrada aralashtiriladi, bunda yorqin va toza ranglarni topish mumkin.

Bu plener sharoitida ishlash uchun juda qulay uslub. Bo`yoqlar qattiq mo`yli mo`yqalamlar bilan qo`yiladi. Polotna sifatida ko`pol to`qilgan xolst yoki kartondan ham foydalanish mumkin.

"Alla prima" uslubida tipik kompaktli va relefsimon tarkibni yaratish mumkin. Uni chetlari yoki konturlarini bermalol sidirib olib, tekislash va qo`shib yuborish mumkin. Buning uchun sigir kilidan yasalgan quruq va yumshoq mo`yqalamlardan foydalanish mumkin.

Rang va konturlarning chetlarini shunday qilib yumshoq va yengil kirishib ketuvchi qilish mumkin. Bu usul shuningdek "sfumato" (yoyilgan kontur) deb yuritiladi.

Shpatel bilan ishlash texnikasi

Shpatel bilan ishlash texnikasi "alla prima" rangtasvirining bir varianti hisoblanadi. Oldin monoxrom ranglar bilan kartinaning asosiy strukturasi

qo'yiladi, keyin esa elastik mastixin yordamida pasta usuli bilan rang qo'yiladi. Oq releflardan farqli ravishda bu yerga bir oz qurigan yuzaga yorug'lik blikli qo'yiladi.

Lessirovka va rangtasvirning lessirovka texnikasi

Lessirovka texnikasida ishlash jarayoni juda zerikarli bo'lib, u ko'p vaqt va chidamni talab etadi. Eng avvalo bunda tiniq tasavvur va yaratilajak tasvirning fikriy obrazi juda zarur bo'ladi. Kartina monoxrom usulida ko'riladi. Lessirovka texnikasida ishlangan rangtasvir, xuddi shaffof suvli kulning tubini ko'rgandek asosi va chuqurligigacha ko'rinadi. Ishning birinchi bosqichi tugaganidan so'ng rasm lessirovka bo'yoqlari bilan qoplanadi. Kartinaga keyingi qatlam ranglari, oldingi ranglar hech bo'lmaganda yarmigacha quriganidan so'ng qo'yilishi lozim.

Ko'p qatlamli rangtasvir

Rangtasvirda eng ko'p tarqalgan usullardan biri bu ko'p qatlamli rangtasvir hisoblanadi.

Ko'pincha kartinani bir seansdayoq tugatib bo'lmaydi. Kartina eskizga va tugamagan ishga o'xshab qoladi. Rassomda uni qaytadan ishlash istagi paydo bo'ladi. Shunday qilib, ishning bo'lak, turli bosqichlari paydo bo'ladi. Rassom ishni tugatmaydi va uni "ochiq" qoldiradi. Ko'pqatlamli rangtasvirda yuqorida aytib o'tilgan usul va kombinatsiyalarning barchasi qo'llaniladi.

Aniqroq qilib aytganda, kartinani boshlab, keyin uni tugatdim deyish noto'g'ri bo'ladi. Ko'pqatlamli rangtasvir texnikasining ish jarayonida juda ko'p yangi usullar paydo bo'lishi mumkin. Bunda xattoqi ishni tugatishga ko'ra ushbu texnikani qo'llashni o'zi ham juda muhim bo'lib qoladi.

Kartina ustida ishlash hamma vaqt "ochiq" bo'lib qolishi va "tugamagan" ish bo'lib tuyulmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda bajarilgan ishning amaliy tomonlariga emas, balki uning badiiy mezonlariga e'tibor berish lozim.

Moybo'yoq rangtasvirining nuqsonlari va ularni tuzatish


Rangtasvir asarining koloritik imkoniyatlari va kartinaning uzoq vaqt saqlanishi faqatgina ishlatiladigan materiallarning sifatigagina bog`liq emas, balki rangtasvir texnologiyasining to`g`ri tanlanganiga ham bog`liq bo`ladi.

Rangtasvir asarlarida uchrab turadigan nuqsonlar ko`pincha rassomning rangtasvir texnikasini to`g`ri bilmasligidan yoki past sifatli gruntndan ham kelib chiqishi mumkin.

Rassomning kasbiy xatolari turli sabablarga ko`ra yuz beradi. Bo`lar ishni mohiyatini tushunmaslik va eksperiment qilish istagi, shuningdek rassomning shaxsiy xususiyatlariga (kuchli temperamentli) bog`liq bo`lishi mumkin. Shubxasiz harbir rassomda u yoki bu sabablarga ko`ra xatolar paydo bo`ladi.

Quyida biz ish jarayonida eng ko`p yuz beradigan xatolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish, zararni tugatish haqida to`xtalib o`tamiz.

II.2 Rasmni qurishda perspektiva qoidalari.



San`atshunoslik fakultetiga kiruvchi abiturent perspektiva bilan yaxshi tanish bo`lmog`i lozim, uni o`zlashtirgan kishi rasm chizishda ham ijobiy natijalarga erishadi. «Ko`z oldiga keltirish» va «yoddan chizish» kabi vazifalarni qiynalmay bajara oladigan bo`ladi.

Perspektiva san`atini egallamay turib, savodli rasm chizish mumkin emas.

Perspektiva asosan chizma geometriya kursida to`liq fan sifatida o`qitiladi.

Perspektiva rasm chizishni boshlashdan, ya`ni «qurish» da asosiy rol o`ynaydi. Har bir rasm chizuvchi narsani o`ziga qarab chizayotganda u chizayotgan har qanday buyum chizuvchining ko`rish nuqtasi joyiga nisbatan o`zgarib ko`rinadi.

Shakl berish

Buyumlarni hajmli tasvirlash rangtasvir mashg`ulotlarida eng asosiy o`rinni egallaydi. Shu sababli har bir chizuvchi mashg`ulotlarda o`zining kompozitsiyasi bo`yicha buyumlarning shaklini berish usulini tanlaydi. Qo`yilgan naturani chizishga kirishishdan avval uning konstruktiv tuzilishi va shakli bilan chuqurroq tanishib, tahlil qilib ish boshlansa, qo`yilgan maqsadga erishish osonroq bo`ladi.

Bizga ma'lumki, rasmda soya yorug'likning qattiq yumshoqligi turlicha bo'lgan qalamlar bilan buyum teksliklarini tus (shtrix) berib yopish bilan olib boriladi.

Chizish paytida naturani surat tekisligi yuzasida kompozision joylashishini topish, uning soya yorug'lik holatini to'g'ri hal qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Rassomlardan ayrimlari naturani avval chiziqli qilib qurib chiqish kerak, keyin tuslashga kirishiladi deyilar. Bu usulda bajarilgan ish toza va pishiq chiqadi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni aytish kerakki, tasvirni konstruktiv qurish davomida unga tus berish ham qo'shib borilsa, naturani soya yorug' chegarasi aniqlanib, naturaga shakl berish badiiy idrok bilan qo'shib olib borilgan bo'ladi. Geometrik modellarni tasvirlashda bu usul yaxshi natija beradi. Natura sun'iy yorug'lik bilan yoritilib ishlanadi. Bu esa naturada soya yorug'ni o'zgartirmasdan uzoq vaqt ishlash imkonini beradi. Ayrim hollardagina, ya'ni tirik natura rasmini chizish davomida yorug'lik ba'zan o'zgarishi mumkin. Yorug' soya chegarasi ham chizilayotgan narsani to'g'ri qurish uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Ishning borishida buyumning umumiy yaxlit shaklini topish zarur, maydalashtirish kerak emas. Ayniqsa, tajribasi kamroq chizuvchi tezroq ishni tugatishga harakat qilib xatolikka yo'l qo'ydi, shuning uchun ular yaxlitlikni yo'qotmaslik usullarini o'rganishlari shart. Buning uchun yupqa mato ustidan natura ko'riladi.

Ishda kompozisiya qurish to'g'ri topilgach, chizuvchi mayda bo'laklarni ishlashga, ya'ni umumiylikdan bo'laklarni aniqlashga o'tiladi. Qachonki, bo'laklar aniqlab ishlangach, yana ishning yaxlitligi ko'riladi. Bu usul maydadan yirikka qaytish deyiladi.


Ishning oxirida natija shunday bo'lishi kerakki, hamma mayda bo'laklar bir yaxlitlik hosil qilsin.

Tugallash.

Eng mas'uliyatli bosqich chizuvchi uchun hamma bosqichlarni muvaffaqiyatli yakunlashdir. Ishning kompozitsiion qurilishi va shakl berish ko'zdan kechiriladi, tonjihatdan natyurmortni yaxlitligiga e'tibor qaratiladi. Ishning tugallanganligini ko'pchilik bilan tahlil qilish foydalidir. Xato va kamchiliklar tuzatiladi, tayyor ishni yaxlitligini ta'min etishga o'tiladi.

Bitiruv malakaviy ishga amaliy ish sifatida “Perspektiv manzara”ni moybo'yoqda tasvirlanishi va unda rang munosabatlari.


Biz natyurmortni chizishdan oldin ko'plab eskiz va qoramalar bajarib, so'ngra aniq bir kompozitsiyani yaratib oldik. Unga 60X80 o'lchamdagi chizish tekisligini DVP faneradan tayyorlab oldik. Uni yaxshilab gruntlab, oq kraska bilan fon berib oldik. Tayyor kompozitsiyani tekislikka tushurdik va ranglash jarayonini boshladik.



Ranglashda biz moybo'yoqdan foydalandik.



Daraxtlarni qiya egilgan xolatini va uning pastida toshlar, gullarni turganini ranglar uyg'unligini hisobga olgan holda tasvirlashga harakat qildik. Daraxtlar bir-biriga uyg'unlik berib turadi.. Materialdagi yorug'-soyalar, buklamalar yaxshilab ishlab chiqildi.



Daraxt barglarining yashilligi, toshlarning bo`rtib chiqqanligi manzarani umumiy koloritini to'g'ri ifodalashga qo'l keldi. Manzaradagi daraxt va toshlarni perspektiv qonun qoidalar asosida ishlab chiqdik.



Amaliy ishni bajarishda ilmiy rahbarimning va mutahassis ustozlarimning maslahatlariga tayandim. Manzaradagi barcha narsalarning bir-biriga ranggini urishi, ranglarning umumlashuvi, kontrast joylar va detallashtirishlarga e'tibor bergan holda ishni yakuniga etdim. Amaliy ishni bajarib bo'lgach unga mos baget qo'yib, uni tugalladim.



XULOSA.

Bitiruv malakaviy ishim yakunida shuni xulosa qilib aytishim mumkinki, biz kelajakda yosh avlodni ta'lim - tarbiya olishida, tasviriy san'at orqali tabiatga, atrof – muhitga va predmetlarga bo'lgan qarashi, tasavvuri va umumiy dunyoqarashini shakllantirishda asos bo'ladigan pedagog kadrlar bo'lib yetishib chiqmoqdamiz. Shunday ekan biz o'z sohamaiz ustida bundan keyin ham ko'plab izlanishlar olib borishimiz va o'quvchilarni to'g'ri bilimlarga ega bo'lishlari uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilishimiz lozim bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishimda "Manzara janri va unda ranglar perspektivasi" mavzusini yoritib berishga xarakat qildim. Bitiruv malakaviy ishimni tashkil etgan ikki bob va shu boblar tarkibidagi bo'limlarda manzara janrining o'ziga hosliklari, murakkabliklari va qiziqarli tomonlari hamda asosiysi, mavzuga mos ranglarning ahamiyati xaqida yoritib berdim. Mavzuni tashkil etgan boblarni birinchisini

Manzara janri va uning o'ziga xos tomonlari."- deb nomladim va bu bobda rangtasvir haqida, rangtasvirda ranglarning o'zaro munosabati xaqida, ranglarni yaxshi anglagan holda rangtasvirda amaliy ish bajarilishi lozimligi xaqidagi ma'lumotlarni kiritdim. O'z o'rnida manzarani rangtasvirda chizilishi, qurilishi va tasvirlanishiga kirib bordim manzarani to'liq janr sifatidagi talqinini keyingi "manzara kampazitsiyasi"- deb nomlangan bobda kengroq yoritib berishga intildim Manzara tasviriy san'atning qiziqarli va jozibali jarlaridan biri ekanligi va bu janr o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qila olishi xaqida fikrlar kiritildi. Har bir bob ikkitadan bo'limga ajratilib, shu bo'limlarda bob mavzularini ochib berdim.

Birinchi bobni "Tasviriy san'atdagi janrlar Manzara janrining o'ziga xosligi" hamda "Manzara kompozitsiyasi"-deb nomlangan bo'limlar tashkil etadi va bu bo'limlar bob mavzusini ochib berishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobni "Manzara rangtasviri va unda perspektivaning ahamiyati" hamda "Rangtasvir texnologiyalari,akvarel,guash va moybo'yoqda amaliy ish bajarish" nomli bo'limlar yoritib beradi. Ana shu ikkinchi bobni men o'z bitiruv

malakaviy ishim uchun amaliy ish sifatida tanlab olganim “Manzara” manzarani ishlanish bosqichlariga bag‘ishladim. Unda ishning qanday boshlanishidan tortib, uning tayyor holatga keltirilishigacha bo‘lgan bosqichlarga e‘tiborimni qaratib chiqdim. Manzarada nisbatlarning juda katta ahamiyat kasb etishi va ranglar orqali bizni ikkilantiradigan va topilishi qiyinroq bo‘lib turadigan holatlarni onsonroq topib olish yo‘llarini ko‘rsatib chiqdim. Nafaqat manzarani, balki tasvriy san’atda boshqa har qanday narsalarni yoki tasvirlarni bajarishda perespektivani esdan chiqarmagan holda o‘zaro nisbatlarga to‘g‘ri ahamiyat bergan holda ishni bajarish tasvirlovchining katta yutug‘i bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ranglarni to‘g‘ri tushunib yetish ham narsalarni to‘g‘ri tavirlashda muhim o‘rin egallaydi.

Rangtasvir mashgulotlarida ranglar bilan ishlashda talabalarni ko‘pchilik hollarda qiynab qo‘yadigan narsa ranglarning o‘zbekcha nomlarini yaxshi bilmaslikdir. Talabalarga rangtasvir mashgulotlarini olib borish uchun bo‘lajak tasviriylar san’at o‘qituvchisi rangtasvir asoslarini puxta egallash va rangshunoslik nazariyasini mukammal bilishi shart. Shuning bilan birga realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini uzlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rangda ifoda yo‘llarini o‘rganish mumkin. Bu hol, ayniqsa, manzara ishlashda, uning ranglari to‘grisida so‘z yuritganda ko‘zga yaqqol tashlanadi. Malumki bo‘yoqlarning 150 dan ortiq ruscha turlari mavjud.

Tasviriylar san’atining barcha turlarida rang muhim ro‘l o‘ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo‘llanadigan tus va ranglarning o‘zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o‘rinlidir, masalan, musiqa san’atidagi ovozlarning ma‘lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o‘z holicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg‘unlashtirilmay chalinsa ma‘nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo‘lib qoladi. Agar ma‘lum bandlikda va tartibda uyg‘unlashtirib chalinsa yoqimli bo‘lib eshitiladi.

Ma’noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo‘ladi. Ularning sifati ovozlari o‘rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarning yo‘g‘on-ingichkaligiga ham bog‘liq.

Rangtasvirlarni ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, y'ani har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q- ochligi mavjud . Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir obektiga zid xolda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'likligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xudi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qoq gmmalarda tasvir obektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi . Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi .Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik , qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.

Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan ,uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar , amaliyotchilar doimo takidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadaligiga bogliq muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda etiborli munosabatda bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, maxorat egalari mo'yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R Axmedov, R.Choriyev, B.Burmakin, B.Boboyev, J.Umarbekov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, A.Qozoqov. va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko'plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Ma'lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muxit holati muxim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan obektga yorug'lik manbai atrofdagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi , tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, taxlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks xolda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni xisobga olib

tasvirlashda manzaralar juda qo‘l keladi. Chunki unda predmetlarda soya, shulalar, rang tuslarining uyg‘inligi ifodaviyligi yaqqol ko‘rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko‘rsatishda xizmat qiladi. Shu‘la («blik») va rangli shu‘la («refleks manzaradagi barcha predmetlarda aks etib turadi.. Chunki ular yorug‘likni yutmaydi, balki yogdulanib kaytaradi. Nurni o‘zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu‘lalarni ba‘zan sezib qolish qiyinroq boladi. Ammo ularni talaba ilg‘ab olishini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun har bir o‘rganuvchi yosh rassom o‘z bilimini ham nazariy, ham amaliy jixatlarini kitob qo‘llanmalaridan o‘qib, rangtasvir namunalarini muzey va ko‘rgazma zallarida ko‘rishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I A Karimov “ *Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori*”. - T.: Sharq, 1997.
2. I A Karimov “ *Yuksak manaviyat engilmas kuchdir*” Toshkent 2008
3. .I.A.Karimov “*Barkamol avlod orzusi*”
4. I.A.Karimov “*Buyuk kelajak sari*” Toshkent 1998
5. Tasviriy san'at fanidan yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va mavzuiy rejalashtirish. - T.: RTM, 2004.
6. Kuziyev T., Abdirasilov S., Nurtayev O', Sulaymonov A. Tasviriy san'at. 5-sinf. Darsiik. - T.: Sharq, 2012.
7. .Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`t konsepsiyasi .Toshkent 1995
8. Tasviriy san`at Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi “ –Tosh sharq nash 1999
9. Boymetov.B Tolipov N “*Maktabda tasviriy san`at to`garagi`* Tosh 1995
10. Komenskiy Ya A “ *Velikaya didaktika*” Izobr ped soch Moskva :Uchpedgiz 1995
11. L eonar do Dovinchi “ *Kniga o jivopisi*”- Moskva
12. Oydinov N. “*Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari*”- Tosh o`qit 1997
13. Tasviriy san`at. O`rta maktab programmalari {1-3, 4-6 sinflar} Tosh O`qituvchi
14. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. "Ma'rifat" gazetasi 1997-yil 1-oktabr.
15. Ahmedova X. va boshqalar. Bolangiz maktaga tayyormi?-T.: 2000.
16. Raxim Xasanov, Xoshimterdi Egamov “*Tasviriy san`atdan dars ishlanmalari*” Toshkent - 2003 yil.
17. S. F. Abdirasilov “*Tasiriy san`at o`qitish metodikasi*” Toshkent-2012 yil.

ILOVALAR.

